

OLIY TA'LIMDA INKLYUZIV TA'LIM VA UNDAGI MUAMMOLAR

Muradullayeva Sevinch Maxsudjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti, 3-bosqich talabasi

E-mail: Muradullaevas19@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'limga bo'lgan huquqlarini ta'minlash, shuningdek, ularning ta'limga olish huquqini kafolatlash borasida qabul qilingan qonunlar, inklyuziv ta'limga konstitutsiyada mustahkamlanishining ahamiyati, inklyuziv ta'limga muammolar va ularni bartaraf etish uchun takliflar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'limga, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Konvensiya, nafaqa.

INCLUSIVE EDUCATION IN HIGHER EDUCATION AND ITS PROBLEMS

Abstract: This article analyzes the laws adopted to ensure the rights of persons with disabilities to education, as well as to guarantee their right to education, the importance of enshrining inclusive education in the constitution, problems in inclusive education and proposals for overcoming them.

Key words: inclusive education, United Nations, International Health Organization, Convention, manual.

ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ И ЕГО ПРОБЛЕМЫ

Аннотация: В данной статье анализируются законы, принятые для обеспечения прав лиц с инвалидностью на образование, а также для гарантии их права на образование, важность закрепления инклюзивного образования в конституции, проблемы в инклюзивном образовании и предложения по их преодолению.

Ключевые слова: инклюзивное образование, Организация Объединенных Наций, Международная организация здравоохранения, Конвенция, пособие.

Kirish: Nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'limga olishga bo'lgan huquqlarini ta'minlashda inklyuziv ta'limga muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta'limga tushunchasiga **O'zbekiston Respublikasining "Ta'limga to'g'risida"**gi Qonunidan kelib chiqib quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: Inklyuziv ta'limga alohida ta'limga

ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lif tashkilotlarida tashkil etiladigan ta'lif shaklidir[1]. Inklyuziv ta'lifni inson huquqlarining buzilishi vaadolatsiz diskriminatsiyaga qarshi kurash vositasi sifatida baholash mumkin. Chunki inklyuziv ta'lif nogironligi bo'lgan shaxslarning sifatli ta'lif olishi va ularning jamiyatdan ajralmasligini ta'minlashga qaratiladi. Inklyuziv ta'lif tushunchasi turli mamlakatlarda turlicha tavsiflangan. Masalan, **Janubiy Afrika Respublikasida** O'zbekiston Respublikasidan farqli ravishda inklyuziv ta'lif faqatgina jismoniy, ruhiy, aqliy yoki sensor nuqsoni bo'lgan shaxslarning emas, balki insonlarning ijtimoiy kelib chiqishi, oilaviy ahvoli, sog'lig'i, yoshi, o'zlashtirish darajasi kabi xususiyatlaridan kelib chiqib ta'minlanishi belgilangan. Bu borada tadqiqot olib borgan **Yoxennasburg universiteti professori Pierre du Plessisning** fikricha, inklyuziv ta'lif barcha bolalarning ta'limga bo'lgan huquqini tan olish, bolalarning turli xil o'rganish ehtiyojlari va farqlanishlarining qabul qilinishi hamda hurmat qilinishini ta'minlash, ta'lif tizimlari va ta'lif metodologiyalarini barcha o'quvchilarining ehtiyojlarini qondirishga mos ravishda ishlab chiqish, bolalarning yoshi, jinsi, etnik kelib chiqishi, tili, sinfi, nogironligi, kambag'alligi, uysizligi yoki OIV(Odam immuniteti tanqisligi virusi) holatiga bog'liq farqlarni tan olish va hurmat qilish, o'quv dasturlari va o'quv muhitini barcha bolalarning ehtiyojlaridan kelib chiqib yaratish, ta'lif muassasalaridagi ta'lif olishga bo'lgan to'siqlarni aniqlash va minimallashtirish, O'quvchilarining kuchli tomonlarini rivojlanishiga uchun imkoniyat yaratishda namoyon bo'ladi[2]. Inklyuziv ta'lif nafaqat boshlang'ich va o'rta ta'limda, balki ta'larning har bir bosqichida teng ravishda ta'minlanishi inson huquqlarining teng ravishda e'tirof etilishida, huquq ustuvorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama va tahlillar: Bugungi kunga qadar nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasida bir qator qonunchilik hujjatlari qabul qilinib, xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilingan. Xususan, 2021-yil 7-iyunda O'zbekiston Respublikasi tomonidan Birlashgan millatlar tashkilotining **"Nogironlar huquqlari to'g'risida"** gi Konvensiyasi ratifikatsiya qilindi. Ushbu Konvensiyaning 24-moddasida nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'limga bo'lgan huquqlarining kafolatlari belgilangan bo'lib, unga ko'ra Ishtirokchi davlatlar nogironlarning ta'lif olish huquqini tan olishlari, ushbu huquqni kamsitishsiz va teng imkoniyatlar asosida amalga oshirish maqsadida ishtirokchi davlatlar barcha darajadagi inklyuziv ta'lif tizimini ta'minlashlari belgilangan[3]. **Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining** 2021-yil 16-noyabrdagi statistik ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 1 milliarddan ziyod kishida, ya'ni dunyo aholisining o'n besh foizida nogironlikning u yoki bu turi kuzatiladi. Ularning sakson foizi rivojlanayotgan davlatlarda yashaydi[4]. Hozirga vaqtida O'zbekiston aholisining ikki foizdan ortig'i nogironligi bo'lgan

shaxslar sifatida qayd etilgan. O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda Nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'limga bo'lgan huquqlarini ta'minlash maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. 2021-yil 22-fevral kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti **Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida imkoniyatlari cheklangan shaxslarning o'z qobiliyatini to'la ro'yobga chiqarish masalalari bo'yicha mintaqaviy kengash tuzish taklifi bilan chiqishi buning yorqin isbotidir[5]. Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab quvvatlash maqsadida bugungi kunga qadar quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan:

- ✓ O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni;
- ✓ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonuni;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidentininng "Nogironligi bo'lgan shaxslarni hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidentininng "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

Shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **"Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"**gi Farmoninig 2-ilovasida nogironlikni belgilashning ijtimoiy modeliga o'tish konsepsiysi va uning tamoyillarini amalga oshirish borasidagi yo'l xaritasini ishlab chiqish, imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash bo'yicha **milliy dastur** ishlab chiqish vazifalari belgilangan[6]. Shunga qaramay, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashga qaratilgan ba'zi masalalar ochiq qolmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentininng **"Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi Farmonining 6-bandida 2018-2019-o'quv yildan boshlab nogironligi bo'lgan shaxslarga oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda ikki foizli imtiyoz ajratilganiga qaramay, ularning oliy ta'limda inklyuziv ta'lim olishga bo'lgan huquqlari "Ta'lim to'g'risidagi" qonunda kafolatlanmagan. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 20-moddasiga muvofiq, Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etilishi belgilangan. Ushbu qonunning 55-moddasida quyidagicha ko'rsatilgan: Davlat jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarning (shaxslarning) davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida inklyuziv shaklda bepul umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va muktabdan tashqari ta'lim olishini ta'minlaydi. Fikrimcha, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 55-moddasiga quyidagicha qo'shimcha kiritish lozim: Davlat jismoniy, aqliy, sensor

(sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarning (shaxslarning) davlat ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasalarida, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional **va oliy ta'lif** muassasalarida inklyuziv shaklda umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional, oliy ta'lif va maktabdan tashqari ta'lif olishini ta'minlaydi. Xorijiy tajribaga yuzlanadigan bo'lsak, Amerika Qo'shma Shtatlarida 1975-yilda "**Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida**"gi qonun qabul qilingan bo'lib, ushbu qonunning nomi 1990-yilda "**Nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lifi to'g'risida**"gi qonun nomiga o'zgartirilgan. Ushbu qonun 0 yoshdan 21 yoshgacha bo'lgan shaxslarning bepul ta'lif olishga bo'lgan huquqlarini va nogironligi bo'lgan shaxslar ota-onalarining huquqlarini ta'minlaydi[7]. Qonunchiligidizda nogironligi bo'lgan shaxslarning ota-onalariga nafaqa to'lash tartibi mavjud. AQSh qonunchiligidida esa nogironligi bo'lgan shaxslarning ota-onalarini o'qitish tartibi ham belgilangan. Bu o'z navbatida nogironligi bo'lgan shaxslarning oilaviy muhitini ham yaxshilashga xizmat qiladi. Janubiy Afrika Respublikasining qonunchiligini tahlil qiladigan bo'lsak, Janubiy Afrika Respublikasida 1996-yilda qabul qilingan yangi konstitutsiyada barcha insonlarning tengligi va teng huquqlarga ega ekanligi, barchaning asosiy ta'lif olishi mumkinligi, hech kimga nisbatan adolatsiz kamsitish, jumladan irqi, jinsi, tili, homiladorligi, dini, nogironligi, oilaviy holati, e'tiqodi, tug'ilishi, ijtimoiy kelib chiqishi yuzasidan kamsitishga yo'l qo'yilmasligi belgilangan[8]. Ushbu normaning konstitutsiyada mustahkamlanganligi inklyuziv ta'limga o'tish, avvalo, tenglik muhitiga va nomutanosiblikni oldini olishda xizmat qiladi. Yoxannesburg universiteti professorining fikricha, Janubiy Afrikada inklyuziv ta'lifdagi asosiy muammolar sifatida malakali kadrlar bilan ta'minlash, ota-onalarning ta'lifdagi hissasini oshirish, siyosatni qonunchilikka aylantirish, ya'ni huquqiy kafolatlarni mustahkamlash masalasi qo'yilgan. Aytish mumkinki, professor Plessis tomonidan aytilgan muammolar O'zbekiston Respublikasida ham mavjud. Fikrimizcha, ushbu muammolarni bartaraf etish uchun nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'limga bo'lgan huquqlarini qonunchilikka kiritish bilan cheklanmasdan, normalarning amaliyotda ishlashini ham ta'minlash darkor. Buning uchun birinchi navbatda ta'lif muassasalarida nogironligi bo'lgan shaxslarning holati va ularning ehtiyojmand kelib chiqqan holda ta'lif sharoitlarini yaxshilash choralarini ko'rish lozim. Xususan, oliy ta'lif muassasasi binosiga nogironlik aravalarida kirish imkoniyatini yaratish, ko'zi ojiz talabalar uchun brayl alifbosidagi manbalar adadini oshirish, audio darsliklar yaratish, eshitish va gapirishda nuqsonlari bo'lgan shaxslar uchun surdopedagoglar yoki surdotarjimonlarni ta'minlash masalalariga e'tibor qaratish kerak.

XULOSA: Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, har bir insonning huquqlari teng ravishda e'tirof etilishi, diskriminatsiyaga yo'l qo'yilmasligi, insonlarning xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarida, konstitutsiya va qonunchilik hujjalarda mustahkamlangan huquqlari to'liq amalga oshirilishi kerak. Avvalo, qonunchilik

tizimidagi noaniqliklar va bo'shliqlar bartaraf etilishi, qonunlarning aniq va bir xilda ishlashi to'liq ta'minlanishi lozim. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuning 55-moddasida oliy ta'limda inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarini kafolatlash, xorijiy mamlakatlardagi tajribadan unumli foydalangan holda, ota-onalarning o'qitish tizimini O'zbekiston Respublikasida ham yo'lga qo'yish, nogironligi bo'lgan shaxslar duch kelishi mumkin bo'lgan ish topishdagi muammolarni bartaraf etish uchun ham chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish, ularni o'qitish bilan bog'liq kadrlar muammosini hal qilish choralarini ko'rish, shuningdek ularning yetarli darajada tahsil olishi uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratish lozim.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni/
<https://lex.uz/ru/docs/5013007>
2. Legislation and policies: Progress towards the right to inclusive education/<https://journals.co.za/doi/pdf/10.10520/EJC136272>
3. "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya/<https://lex.uz/docs/-5501227>
4. <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/press-releases/nogironlik-statistikasiga-yondashuv ва-amaliy-vositalar-malumotlarni-toplash-tahlil-qilish ва-ulardan-foydalanish>
5. <https://yuz.uz/uz/news/prezident-shavkat-mirziyoevning-bmt-inson-huquqlari-boyicha-kengashining-46-sessiyasidagi-nutqi>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni/ <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
7. IDEA- Individuals with disabilities act/<https://sites.ed.gov/idea/about-idea/#:~:text=The%20Individuals%20with%20Disabilities%20Education,related%20services%20to%20those%20children>
8. Constitution of the Republic of South Africa, 1996.